

**2024-2025-O'QUV YILIDA
UMUMTA'LIM MAKTABLARINING
11-SINF
O'QUVCHILARI UCHUN
O'zbekiston Tarixi
FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI
OTKAZISH BO'YICHA
METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR**

**2024-2025-O'QUV YILIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING
11-SINF O'QUVCHILARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT IMTIHONINI
O'TKAZISH BO'YICHA O'ZBEKISTON TARIXI FANIDAN SPETSIFIKATSIYASI**

Tuzuvchilar: R.K.Allaberganova, A.R. Sabirov, Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi mutaxassislari.

Taqrizchilar: K.R.Achilov, Yunusobod tumani 86-maktabining tarix fani o'qituvchisi, M.M.Xasanov, Sergeli tumani 8-umumta'lismaktabining tarix fani o'qituvchisi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING 2025-yil 20-fevraldag'i "2024/2025-o'quv yilida umumiyl o'rta ta'limga muassasalarida o'quvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi 65-son buyrug'i.

O'quvchilarning O'zbekiston tarixi fanlaridan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2024-2025-o'quv yilida 11-sinflarda yakuniy imtihon test shaklda o'tkaziladi.

11-sinflarda O'zbekiston tarixi fanlaridan yakuniy attestatsiya variantining tuzilishi.

Imtihon ishining har bir varianti 10 ta topshiriqni o'z ichiga oladi (5-jadval). Savollar bir tanlovli test topshiriq shaklida bo'lib, o'quvchi bitta to'g'ri javobni belgilaydi.

Har bir imtihon variantining savol va topshiriqlari O'zbekiston tarixi fani bo'yicha umumiyl o'rta ta'limga 10 – 11-sinflar mavzularini qamrab olgan.

Variant 10 ta topshiriqdan iborat bo'lib, ularning 3 tasi bilish, 6 tasi qo'llash, 1 tasi mulohazaga oid bo'ladi. Variant topshiriqlarini bajarish uchun 180 daqiqa vaqt beriladi.

O'quvchilarning yakuniy imtihon ishlari 100 ballik tizim asosida baholanadi:

0 – 29% – "qoniqarsiz";

30–65% – "qoniqarli";

66–85% – "yaxshi";

86–100% – "a'lo".

Har bir topshiriq uchun belgilangan balldan yuqori ball qo'yilishiga yo'l qo'yilmaydi. Test topshiriqlarida javob variantlarining faqat bittasi tanlanadi.

1-jadval

Sinov materiallarining qismlar bo'yicha taqsimoti

Topshiriqlar soni	Topshiriq shakli	Ball
10	Test	100 ball

2-jadval

Mazmun sohalari bo'yicha topshiriqlarning taqsimoti

Mazmun soha	Topshiriqlar soni	Topshiriqlarning foizi	Ochiq test/Bitta savolning bali/umumiyl ball	Jami ball

O‘zbekiston tarixining sovet davri	5	50%	10/50	50
O‘zbekiston tarixining mustaqillik davri	5	50%	10/50	50
Jami:	10	100		100

3-jadval

Baholanadigan ko‘nikmalar taqsimoti

Fan	Bilish	Qo‘llash	Mulohaza
O‘zbekiston tarixi	3	6	1
Jami	3	6	1

B-bilish, reproduktiv darajadagi topshiriqlarining mazmuni o‘quvchilar tomonidan o‘quv materiali qayta ishlanmasdan, ularning xotira qobiliyatini aniqlovchi, qonuniyatlar, xossalari, tushuncha va atamalarning mohiyatini bilish, **yodda saqlash va tanish, odatiy vaziyatlarda** qo‘llashga qaratilgan.

Q-qo‘llash, produktiv o‘quv topshiriqlari – o‘quvchilardan o‘rganilgan mavzuga oid qonun va qonuniyatlar, berilgan topshiriqlarga mos usullarni tanlash, tahlil qilish, taqqoslash, qiyoslash, **bir nechta qonun va qonuniyatlarni** bir vaqtida qo‘llab, umumlashtirish va xulosa yasashni talab qiladi.

M-mulohaza, intellektual darajadagi topshiriqlar o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni **notanish vaziyatlarda** qo‘llash, tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarni qo‘llab, umumlashtirishni talab qiladi.

4-jadval

Sinov materiallari ballarining taqsimoti

Fan	Javobi tanlanadigan test bali/soni	Jami
O‘zbekiston tarixi	10 ball/10 ta	100 ball/10 ta

Topshiriqlarda baholanadigan ko‘nikmalar

Topshi riq tartib raqami	Bo‘lim nomi	Baholanadigan ko‘nikmalar	Ko‘nik ma darajas i	Topshiriq shakli	Ball								
1	Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylanishi. Turkiston o‘lkasida siyosiy-ma’muriy boshqaruv tizimi. Turkistonda Rossiya imperiyasiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari.	Podsho Rossiyasi bosqini arafasida O‘rtta Osiyo davlatlarining ichki ahvol, xalq noroziligi, boshqaruv tizimidagi o‘xshash va farqli jihatlarlarini taqqoslay oladi.	Q	Qisqa javobli Moslikni tanlash <table border="1" style="margin-left: auto; margin-right: auto;"> <tr> <td>A</td><td>B</td><td>C</td><td>D</td></tr> <tr> <td>1</td><td>2</td><td>3</td><td>4</td></tr> </table>	A	B	C	D	1	2	3	4	10
A	B	C	D										
1	2	3	4										
2	XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Turkiston Muxtoriyati.	Buxoro amirligi va Xiva xonligi Podsho Rossiyasiga qaram bo‘lgandan keyingi davrdagi ijtimoiy-madaniy, siyosiy ahvolni o‘zaro farqlay oladi.	Q	Qisqa javobli Moslikni tanlash <table border="1" style="margin-left: auto; margin-right: auto;"> <tr> <td>A</td><td>B</td><td>C</td><td>D</td></tr> <tr> <td>1</td><td>2</td><td>3</td><td>4</td></tr> </table>	A	B	C	D	1	2	3	4	10
A	B	C	D										
1	2	3	4										
3	O‘rtta Osiyoda hududiy chegaralanish. O‘zbekiston SSRning tashkil topishi.	Milliy-hududiy chegaralanish siyosati natijasidan vujudga kelgan davlatlar va ular bilan bog‘liq ma’lumotlarni aniqlay oladi.	B	Qisqa javobli	10								

4	O‘zbekistonda sovet hokimiyati yuritgan madaniy siyosat. Sovet hokimiyatining O‘zbekistondagi qatag‘onlik siyosati.	Sovetlarning O‘zbekiston SSR da amalga oshirilgan islohotlarning salbiy oqibatlarini ajrata oladi.	Q	Qisqa javobli	10
5	Uch xonlik davri hamda Sovetlar boshqaruv davri bilan bog‘liq atamalar izohi.	Olgan bilimlariga tayangan holda uch xonlik davri, sovetlar boshqaruvi davri bilan bog‘liq atamalar ma’nosini izohlay, o‘zaro taqqoslay oladi.	Q	Qisqa javobli Moslikni tanlash	10
6	Mustaqillikning e’lon qilinishi va O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy islohotlarning boshlanishi.	Mustaqillikning dastlabki davrida amalga oshirilgan islohotlarni o‘zaro farqlay oladi.	Q	Qisqa javobli	10
7	O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy siyosat.	Iqtisodiy sohalar bilan bog‘liq mulkchilik, milliy valyuta, tadbirkorlik sohalari bilan bog‘liq islohotlarni tahlil qilib, natijasini aniqlay oladi.	M	Qisqa javobli	10
8	Ta’lim tizimi islohotlari va kadrlar tayyorlash.	Ta’lim tizimi bilan bog‘liq tarixiy hodisalarini	Q	Qisqa javobli moslikni tanlash	10

		moslashtira oladi.		<table border="1"> <tr> <td>A</td><td>B</td><td>C</td><td>D</td></tr> <tr> <td>1</td><td>2</td><td>3</td><td>4</td></tr> </table>	A	B	C	D	1	2	3	4	
A	B	C	D										
1	2	3	4										
9	Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ma’naviy va madaniy taraqqiyot.	Mamlakatning ma’naviy va madaniy sohalari bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarni aniqlay oladi.	B	Qisqa javobli	10								
10	O‘zbekiston Respublikasining ko‘p tomonlama hamkorlik aloqalarining rivojlanishi.	O‘zbekistonning xalqaro maydondagi o‘rni, har bir tashkilotning bo‘lib o‘tgan sammitlarini aniqlay oladi.	B	Qisqa javobli	10								

**11-sinf O‘zbekiston tarixi fanidan Yakuniy davlat imtihoni
materiallari savollarining bazasi**
1-savollar

1. (Q-10 ball) Quyidagi rus bosqinchilarining O‘rta Osiyodagi faoliyatlarini bir-biriga moslashtiring.

- | | |
|--|---|
| a) M.Chernyayev;
b) Aleksandr II;
c) Kaufman;
d) P. Lessar. | 1) Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi birinchi vakili etib tayinlandi;
2) Turkiston general-gubernatori etib tayinlandi. U bir paytning o‘zida Turkiston harbiy okrugining qo‘mondoni ham edi;
3) Toshkent shahrini bosib olishdagi harbiy harakatlarga qo‘mondon etib tayinlandi;
4) Qo‘qon xonligini bosib olishni davom ettirish to‘g‘risida ko‘rsatma berdi;
5) 1839-yilda u boshchiligidagi qo‘shinlarning Xiva xonligiga hujumi muvaffaqiyatsiz tugadi. |
|--|---|

Javob:

a	b	c	d

2. (Q-10 ball) Quyidagi O‘rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi bosqichlaridagi amalga oshirilgan harakatlarni bir-biriga moslashtiring.

- | | |
|--|--|
| a) birinchi bosqich;
b) ikkinchi bosqich;
c) uchinchi bosqich;
d) to‘rtinchi bosqich. | 1) Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligiga qarshi istilochilik harakatlari amalga oshirildi;
2) Xiva xonligi yerlarining bir qismi va Qo‘qon xonligining yerlari to‘liq bosib olindi;
3) Turkmanlar bo‘ysundiriladi;
4) Qo‘qon xonligining shimoli-g‘arbiy viloyatlari va Toshkent shahri istilo qilindi. Istilo etilgan hududlarda Orenburg general-gubernatorligi tarkibiga kiruvchi Turkiston viloyati tashkil etildi;
5) bosib olingan hududlarda mustamlakachilik siyosatining to‘liq amalga oshirilishida boshqaruv tartiblari mustahkamlandi. |
|--|--|

Javob:

a	b	c	d

3. (Q-10 ball) Aleksandr III imzolagan “Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom” ga ko‘ra belgilangan o‘zgarishlarni moslashtiring.

- | | |
|---|---|
| a) Zarafshon okrugi;
b) Samarqand viloyati;
c) Qurama uyezdi;
d) Turkiston general-gubernatorligining ma’muriy boshqaruvi. | 1) Turkiston general-gubernatori Kengashi bilan to‘dirildi;
2) Samarqand viloyatiga aylantirildi;
3) Xo‘jand, Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Samarqand uyezdlari uning tarkibiga kiritildi; |
|---|---|

- 4) Toshkent uyezdi deb o‘zgartirildi;
 5) Imperatorining siyosiy agentligi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Javob:

a	b	c	d

4. (Q-10 ball) Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli kurash olib borgan qo‘rboshilar faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlarni o‘zaro moslashtiring.

- | | |
|---|--|
| a) Madaminbek;
b) Shermuhammadbek;
c) Junaidxon;
d) Anvar posho. | 1) u boshchiligidagi Farg‘ona muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzildi;
2) uning sa’y-harakatlari bilan Sharqiy Buxoroda birlashgan qismlar tashkil etildi;
3) G‘arbiy Buxoro va Sharqiy Buxoro hududida qo‘rboshilar harakatga rahbarlik qildi;
4) Katta Ergash qo‘rboshi mag‘lubiyatga uchragach, u asosiy kuchlarini olib, Oloy vohasiga chekindi;
5) 1918-yil o‘rtalaridan e’tiboran qizil askarlarga qarshi mustaqillik uchun jangga kirdi. |
|---|--|

Javob:

a	b	c	d

5. (Q-10 ball) Quyida berilgan chor Rossiyasi istilochilariga qarshi kurash olib borgan shaxslar haqidagi ma’lumotlarni moslashtiring.

- | | |
|---|---|
| a) Bobobek;
b) Aliquli;
c) Yoqub Bek;
d) Jo‘rabek. | 1) Oqmachit qal’asi qo‘mondoni;
2) Turkiston va Chimkent mudofaasi uchun Qo‘qon xonining amir lashkari;
3) Rossiya imperiyasining harbiy yurishlariga qarshi kurash olib borgan Kitob begi;
4) Rossiya imperiyasining harbiy yurishlariga qarshi kurash olib borgan Buxoro amirining qo‘mondoni;
5) Rossiya imperiyasining harbiy yurishlariga qarshi Samarqandda kurash olib borgan Shahrisabz begi. |
|---|---|

Javob:

a	b	c	d

6. (Q-10 ball) Rossiya imperiyasi tomonidan Buxoro amirligi hududida olib borilgan harbiy harakatlarning natijalarini moslashtiring.

a) Jizzax shahridagi harbiy harakatlar; b) Yerjar qishlog‘idagi harbiy harakatlar; c) Xo‘jand shahridagi harbiy harakatlar; d) Zirabuloq qishlog‘idagi harbiy harakatlar.	1) Kuchlar harbiy jihatdan teng bo‘limganligi uchun amir qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchradi; 2) Jangdan keyin amir Muzaffar Kaufmanning Turkiston general-gubernatorligi yangi chegaralari haqidagi taklifini qabul qilishga majbur bo‘ldi; 3) Jangdan so‘ng Yangi Qo‘qon chizig‘i asosida qo‘lga kiritilgan qal’alar birlashtirildi; 4) Istilochilar himoyachilarning mudofaasini yorib o‘tib, shaharni egallahdi; 5) Bu jangda har ikkala tomondan 6 mingdan ko‘proq kishi halok bo‘ldi.
--	---

Javob:

a	b	c	d

7. (Q-10 ball) Quyidagi shaxslarni ularga oid ma’lumotlar asosida moslashtiring.

a) V. Perovskiy; b) M. Chernyayev; c) Korolkov; d) A. Bekovich Cherkaskiy.	1) 1839- yilda Xiva xonligiga hujumi muvaffaqiyatsizlikka uchragan rus sarkardasi; 2) Turkiston viloyati gubernatori; 3) 1717- Xiva xonligiga hujumi muvaffaqiyatsizlikka uchragan rus sarkardasi; 4) Turkiston general-gubernatorligining birinchi rahbari; 5) Dukchi eshon qo‘zg‘olonini batamom yo‘q qilishga qaratilgan jazo ekspeditsiyasi rahbari.
---	--

Javob:

a	b	c	d

8. (Q-10 ball) Quyidagi shaxslarni ularga oid faoliyatları asosida moslashtiring.

a) Aleksandr III; b) N. Krijanovskiy; c) M. Murkroft; d) A. Middendorf.	1) Buxoro amiri tomonidan qatl qilindi; 2) Musulmon aholisining ommaviy savodxonligini xalq ta’limi bo‘yicha Rossiya hukumatiga namuna sifatida ko‘rsatdi; 3) Mintaqaviy aloqalarni yo‘lga qo‘yish uchun Buxoro amirligiga yuborildi; 4) Turkiston viloyati gubernatori lavozimida faoliyat yuritdi; 5) Uning imperatorligi davrida Qurama uyezdining nomi Toshkent uyezdi deb o‘zgartirildi; 6) Turkiston harbiy okrugi boshlig‘i lavozimida ishladi.
--	---

Javob:

a	b	c	d

9. (Q-10 ball) Quyidagi qo‘zg‘alolnarni ularga oid ma’lumotlar asosida moslashtiring.

- a) Yetimxon qo‘zg‘oloni;
- b) Darvishxon qo‘zg‘oloni;
- c) Jizzax qo‘zg‘oloni;
- d) Dukchi eshon qo‘zg‘oloni.

- 1) Mardikorlikka qarshi ommaviy qo‘zg‘olon ko‘tarildi;
- 2) qo‘zg‘olonchilar ikkiga bo‘linib, ularning biriga Ziyovuddin maxsum boshchilik qildi;
- 3) Qo‘zg‘olondan so‘ng o‘lkada mirshablik holati joriy etildi;
- 4) Mingtepada mustamlakachilarning siyosiy va iqtisodiy zulmiga qarshi ko‘tarildi;
- 5) qo‘zg‘olonchilar boylar va volost boshliqlarining qarorgohlariga hujum uyushtirdilar;
- 6) qo‘zg‘olonchilar Putinsev odamlarini tor-mor etib, o‘zini esa kaltaklashdi.

Javob:

a	b	c	d

10. (Q-10 ball) Quyidagi shartnomalarni ularga oid ma’lumotlar asosida moslashtiring.

- a) Qo‘qonda Rus-Osiyo banki binosida imzolangan «tinchlik shartnomasi»;
- b) «Zirabuloq shartnomasi»;
- c) Gandimiyon shartnomasi;
- d) Eron shohi bilan Rossiya elchisi imzolagan maxfiy shartnoma.

- 1) Toshkentdan Samarqandgacha bo‘lgan barcha bosib olingan hudud Rossiya imperiyasi ixtiyoriga o‘tdi;
- 2) Buxoro amirligi va Eron o‘rtasidagi chegara belgilandi;
- 3) Turkiston aholisi o‘lka Xalq Komissarlari Soveti hokimiysi va barcha mahalliy sovet tashkilotlarini tan oldi;
- 4) Qo‘qon xoni tashqi siyosatda hech qanday bitimlar tuza olmasligi shart qilib qo‘yildi;
- 5) Xiva xonligining Rossiya imperiyasiga tobelligini, xonning davlat boshlig‘i darajasida boshqa davlatga bo‘ysunganligini ko‘rsatuvchi hujjat bo‘ldi;
- 6) Rossiya va Eron Kavkazda rus harbiy bazasini tashkil etish masalasini muhokama qildi.

Javob:

a	b	c	d

2-savollar

1. (Q-10 ball) Quyidagi tariflangan shaxslarni ularga oid ma'lumotlar asosida moslashtiring.

- 1) buxoroliklarning yetuk namoyandalaridan Fitrat;
- 2) Yosh xivaliklar rahbarlaridan Polvonniyoz Yusupov;
- 3) Xiva jadidchiligi so'l oqim rahbari, qozikalon Bobooxun Salimov;
- 4) Saroyda mavqeyini oshirib olgan Junaydxon;
- 5) Buxoroda davlat asoslari va diniy tizimni o'zgartirish taraddudida bo'lмаган Sayid Olimxon;
- 6) «Adibi avval», «Adibi soniy», «Yer yuzi» kabi darsliklarni muallifi Munavvarqori Abdurashidxonov.

- a) Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Xalq Nozirlar Kengashining birinchi raisi;
- b) «Sho'royi islomiya» tashkiloti rahbari;
- c) turkmanlarning yovmut qabilasi sardori hisoblanib, asl ismi Qurbon Mamed (Muhammad) bo'lgan;
- d) So'nggi Buxoro amiri.

a	b	c	d

2. (Q-10 ball) Quyidagi tariflangan hukmdorlarni ularning davrida sodir bo'lgan voqealar asosida moslashtiring.

- 1) Xiva xonligida hokimiyat amalda Junaydxon qo'lida to'plandi;
- 2) Shahrisabz va Kitob beklilari Buxoro amirligiga qo'shib olindi;
- 3) Baljuvonlik dehqonlar qo'zg'olon ko'tarishdi;
- 4) Ruslar bilan "Gandimiyon shartnomasi" imzolandi;
- 5) Xon Yosh xivaliklar taqdim etgan manifestni imzoladi;
- 6) Bosh qozi amirning mavjud tuzum asoslariga daxl qilmaydigan farmonini o'qib eshittirdi.

- a) soliq yig'uvchilari o'tgan kamhosil yillar uchun ham xiroj solig'ini yig'ishgan Amir Muzaffar;
- b) imperiya hukumati yordamida taxtga o'tirgan Asfandiyorxon;
- c) 3 yil davomida harbiy ishlar va davlat boshqaruvi asoslarini o'rgangan Amir Olimxon;
- d) amaldagi hokimiyat bosh qo'mondoni qo'lida to'plangan Said Abdullaxon.

a	b	c	d

3. (Q-10 ball) Quyidagi tariflangan shaharlarni ularga xos ma'lumotlar asosida moslashtiring.

- 1) minglar sulolasi asos solgan xonlikning poytaxti bo'lgan Qo'qon;
- 2) tashkil topganiga 2200 yildan oshgan Toshkent;
- 3) kulolchilik, temirchilik, misgarlik, zardo'zlik, shishasozlik, kandakorlik, badiiy kashtachilik sohalari keng tarqalgan Buxoro;
- 4) Xiva xonligi tarkibida bo'lgan Xazorasp;
- 5) Farg'ona viloyati tarkibida bo'lgan Andijon;
- 6) Xonlikning markaziy shahri bo'lgan Xiva.

- a) Butunturkiston o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo'lib o'tdi;
- b) «Inqilobchi yosh buxoroliklarning Turkistondagi markaziy byurosi» tuzildi;
- c) Qutlug' Inoq madrasasi faoliyat yuritdi;
- d) Shamsiddin domla jadid mакtabini ochdi.

a	b	c	d

4. (Q-10 ball) Quyida tariflangan shaxslarni ularga oid ma'lumotlar asosida moslashtiring.

- 1) Qrim--tatar ma'rifatparvari– Ismoil G'aspirali;
- 2) O'rta Osiyo jadidlarining otasi– Mahmudxo'ja Behbudiy;
- 3) ko'plab o'quvchilarning yangi usulda ta'lim olishlariga hissa qo'shgan – Mannon qori;
- 4) Bosh vazir lavozimida ishlagan Islomxo'ja;
- 5) ko'plab o'quvchilarning yangi usulda ta'lim olishlariga hissa qo'shgan – Salohiddin domla;
- 6) qozikalon lavozimida ishlagan – Bobooxun Salimov.

- a) turkiy xalqlarning jadidchilik harakatining asoschisi;
- b) Xiva xonligida jadidchilik harakati o'ng oqimi rahbari;
- c) Qo'qon shahrida tashkil etilgan jadid mакtabi asoschisi;
- d) Toshkentda tashkil etilgan jadid mакtabi asoschisi.

a	b	c	d

5. (Q-10 ball) O'rta Osiyo jadidchilik harakati tarkibini ularga xos ma'lumotlar asosida moslashtiring.

- 1) Kavkaz ziyyolilari tajribalarini o'rganib, u asosida o'lkada yangi darsliklar tizimini yaratdi;
- 2) yangi usul maktablarini tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligiga erishmoqchi bo'ldilar;

- a) Turkiston jadidchiligi;
- b) Buxoro jadidchiligi;
- c) Xiva jadidchiligi (o'ng oqim);
- d) Xiva jadidchiligi (so'l oqim).

3) asosiy tarkibini ziylolar tashkil qilib, ular Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashning oldingi saflarida turdilar;

4) xonlikdagi savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini birlashtirdi;

5) Uning tarkibi, asosan, mayda do‘kondorlar, o‘qituvchilar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi;

6) Diniy ilmlardan voz kechga holda faqat dunyoviy fanlar o‘rgatishni yo‘lga qo‘ydi.

a	b	c	d

6. (Q-10 ball) O‘rta Osiyo jadidchilik namoyandalarini ular faoliyat yuritgan hududlar asosida moslashtiring.

- 1) Bobooxun Salimov;
- 2) Mahmudxo‘ja Behbudiy;
- 3) Ismoil G‘aspirali;
- 4) Islomxo‘ja;
- 5) Ajiniyoz Qosiboy o‘g‘li;
- 6) Fayzulla Xo‘jayev.

- a) Turkiston jadidchiligi;
- b) Buxoro jadidchiligi;
- c) Xiva jadidchiligi (o‘ng oqim);
- d) Xiva jadidchiligi (so‘l oqim).

a	b	c	d

7. (Q-10 ball) Quyidagi tariflari keltirilgan shaxslarni ularga oid ma’lumotlar asosida moslashtiring.

- 1) Xivalik ilk fotosuratchi – Xudoybergan Devonov;
- 2) har qanday yangilikka qiziquvchan – Muhammad Rahimxon II;
- 3) ganchkorlik san‘atining namoyandasasi – Shirin Murodov;
- 4) mohir usta – Odina Muhammad Murod;
- 5) «Padarkush» asarining muallifi – Mahmudxo‘ja Behbudiy;
- 6) «taraqqiyot va tanazzul» deya fikrlarni ilgari surgan – Fitrat.

- a) nemis tilini o‘rganishi uning kelgusidagi taqdirini belgilab bergan;
- b) nafaqat xon, balki iste’dodli shoir va bastakor sifatida tarixda qolgan;
- c) «Haq olinur, berilmas!» shiori butun millatning jangovar chaqirig‘iga aylangan;
- d) Buxoroda barpo etilgan Sitorai Mohi Xosa qurilishida qatnashgan.

a	b	c	d

8. (Q-10 ball) Quyidagilarni ularga xos ma'lumotlar asosida moslashtiring.

- 1) mablag' yo'qligi tufayli o'z faoliyatini to'xtatdi;
- 2) 1870-yili Toshkentda tashkil etildi;
- 3) 72 kunlik faoliyatidan so'ng ruslar tomonidan tugatildi;
- 4) uning tashabbusi bilan Toshkentda meteorologiya stansiyasi ochildi;
- 5) sohadagi ishlab chiqarish, yerkarni sug'orish, dehqonchilik va yerdan foydalanish borasidagi ilg'or usullarni targ'ib qildi;
- 6) uning faoliyatiga Munavvarqori Abdurashidxonov rahbarlik qildi.

- a) Turkiston Muxtoriyati;
- b) «Turkistonning qishloq xo'jaligi» jurnali;
- c) Turkiston xalq kutubxonasi;
- d) «O'rta Osiyo Olimlar jamiyati».

a	b	c	d

9. (Q-10 ball) Quyidagi asarlarni tariflari keltirilgan mualliflari bilan moslashtiring.

- 1) «Birinchi muallim»;
- 2) «Adibi soniy»;
- 3) «Afrosiyob qo'rg'oni»;
- 4) «Tarixi Turkiston»;
- 5) «Padarkush»;
- 6) «Sadoi Turkiston».

- a) kutubxona asoschisi – Mahmudxo'ja Behbudiy;
- b) yangi usul maktabining asoschilaridan biri – Abdulla Avloniy;
- c) o'zbek tilidagi ilk tarixiy asar muallifi – Mulla Olim Mahdum hoji;
- d) «Sho'royi islomiya» tashkiloti rahbari – Munavvarqori Abdurashidxonov.

a	b	c	d

10. (Q-10 ball) Quyidagi tariflangan qoraqalpoq adabiyoti vakillarini ularga oid ma'lumotlar asosida moslashtiring.

- 1) dastlab ovul mакtabida, so'ngra Qoraqum eshon madrasasida ta'lim olgan – Berdaq;

- a) o'z ijodida ovullarning oddiy ahlini, ularning kundalik mehnati va turmushini kuyladi;

- 2) o‘z taqdirini xalqi taqdiri bilan bog‘lagan shoir – Otash Olshinboy;
 3) qoraqolpoq adabiyotiga xissa qo‘shgan ijodkor – Sariboy;
 4) Zevar taxallusi bilan ijod qilgan shoir – Ajiniyoz Qasiboy o‘g‘li;
 5) o‘z taqdirini xalqi taqdiri bilan bog‘lagan ijodkor – Kunxo‘ja;
 6) Tosh madrasani qurdirgan hokim – Xo‘janiyoz.

- b) Qoraqalpoq ziyorilari orasida birinchilardan bo‘lib oxund darajasiga erishgan;
 c) O‘z ijodini xalqi uchun o‘lmas asarlar yaratishga bag‘ishlab, bir she’rini «Xalq uchun» deb nomlagan;
 d) XX asr boshlariga kelib qoraqalpoq adabiyotidagi demokratik an‘analarni davom ettirgan.

a	b	c	d

3-savollar

1. (B-10 ball) 1924-yil 8-mayda bir guruh Xorazm rahbarlari nima maqsadda RKP(b) MKga maktub yuborishadi?

- 1) hududga temir yo‘l tizimini olib kelish;
 2) Xorazmni milliy-hududiy chegaralanishga qo‘shmaslik;
 3) paxta ekin maydonlarini nisbatan kamaytirish;
 4) yer-suv islohotini o‘tkazish.

Javob: _____

2. (B-10 ball) Xorazmni milliy chegaralanishga qo‘shmaslikni iltimos qilgan XXSR rahbarlari nimalarni asos qilib ko‘rsatishadi?

- 1) hududning iqtisodiy qoloqligi va aholining yordamga muhtojligi;
 2) etnik tarkibi xilma xilligi va noroziliklar ro‘y berayotganligi;
 3) hududning katta qismi cho‘ldan iboratligi va amudaryoning sersuvligi;
 4) respublikaning olisda joylashganligi va iqtisodiy jihatdan ajralib turganligi.

Javob: _____

3. (B-10 ball) Dastlab O‘zbekiston SSR tarkibiga bo‘lib, 1929-yildan alohida SSR davlatiga aylangan hududni toping.

- 1) Qozog‘iston SSR
 2) Turkmaniston SSR
 3) Tojikiston SSR
 4) Qirg‘iziston SSR

Javob: _____

4. (B-10 ball) Hududlarni qaytadan balgilash va chegaralash tarafдорлари til tafovutlari, milliy tafovutlarga diqqatni ko‘proq qaratib, ammo nimalarga e’tibor qaratmaganlar?

- 1) xo‘jalikka oid iqtisodiy omillarni, mavjud suv resurslari va sug‘orish tizimining umumiyligi;

- 2) o‘lkaning tarixiy jarayonlari, tarixiy obidalarning joylashuvi, aholining tez-tez ko‘chib yurishi, hududning milliy ananalar;
- 3) dehqonchilikda ayniqsa paxtachilik yaxshi rivojlanganligi, hunarmandchilik sohasi yuksak rivojlanganligi va aholining ko‘pchiliginin hunarmandlardan tashkil etganligi;
- 4) milliy an’analar, urf-odatlar, marosimlar va ularni o‘tkazish bilan bog‘liq jarayonlar.

Javob: _____

5. (B-10 ball) 1920-1933-yillarda faoliyat ko‘rsatgan O‘zbekistondagi dehqonlarni g‘oyaviy jihatdan birlashtirib turgan tashkilotni toping.

- 1) «Milliy Istiqlol» tashkiloti
- 2) «Milliy Ittihod» tashkiloti
- 3) «Hujum harakati
- 4) «Qo‘shchi» ittifoqi

Javob: _____

6. (B-10 ball) O‘zbekiston SSRning ilk poytaxti qaysi shahar bo‘lgan?

- 1) Qo‘qon shahri
- 2) Buxoro shahri
- 3) Samarqand shahri
- 4) Toshkent shahri

Javob: _____

7. (B-10 ball) 1920-yilda Turor Risqulov boshchiligidagi milliy kommunistlar qanday g‘oyani ilgari surdilar?

- 1) O‘rta Osiyoda hududiy chegaralanishni qo‘llab-quvvatlash
- 2) Turkiy xalqlar yagona bo‘lib, ularning tarixiy ildizlari, dini, madaniyati mushtarak ekanligi
- 3) O‘rta Osiyonni butunlay Rossiya tarkibiga qo‘sish
- 4) aholini zamonaviy bilimlarni egallshi, ayollarni savodli qilish

Javob: _____

8. (B-10 ball) O‘rta Osiyo hududidagi Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalari o‘rnida nechta milliy davlat birlashmalari tashkil etilgan?

- 1) to‘rtta milliy davlat birlashmalari
- 2) yetta milliy davlat birlashmalari
- 3) oltita milliy davlat birlashmalari
- 4) beshta milliy davlat birlashmalari

Javob: _____

9. (B-10 ball) Markaziy hukumat tomonidan milliy masala qanday maqsadda bo‘rttirib yuborildi?

- 1) Mahalliy aholining huquqlarini kengaytirish uchun
- 2) O‘rta Osiyo davlatlarining mustaqilligini tan olish uchun
- 3) Yangi tashkil qilinadigan milliy respublikalar va viloyatlar hududini qayta belgilash uchun
- 4) Savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun

Javob: _____

10. (B-10 ball) O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilgandan so‘ng 1925–1929-yillarda qanday islohot amalga oshirildi?

- 1) yer-suv islohotining ikkinchi bosqichi
- 2) uzlusiz ta’limni yo‘lga qo‘yish
- 3) xon hokimiyatini qayta tiklash
- 4) demokratlashtirish va tub iqtisodiy islohot

Javob: _____

4-savollar

1. (Q-10 ball) Sovet hukumati «Hujum» kompaniyasini o‘tkazishdan qanday maqsadlarni ko‘zlaganligini aniqlang.

- 1) o‘zbek xalqining tarixan tarkib topgan milliy axloqiy sharqona an’ana va qadriyatlarini yo‘qotish va ma’naviyatimizga zarba berish;
- 2) ijtimoiy hayotda shiddatli ziddiyatlar hukm surgan bu murakkab davrda adabiyot va san’at milliylik, insonparvarlik, xalqchilik kabi tamoyillarga sodiq ayollarni tarbiyalash;
- 3) o‘zbek milliy musiqasini rivojlantirish ayniqla, ayollar ichidan raqs san’ati va xonandalik ustalarini kashf etish;
- 4) «xotin--qizlarni ozod qilish» bahonasida sanoat korxonalari, kolxoz va sovxozlarda arzon-garovda ishlaydigan qo‘shimcha ishchi kuchlari sifatida ulardan foydalanish.

Javob:

--	--

2. (Q-10 ball) Quyidagilardan Sovet davri qatag‘on qurbanlariga oid to‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlang.

- 1) bu davrda kommunistik partiya saflarini «tozalash» kampaniyasi natijasida O‘zbekiston SSR Oliy sudining raisi Shamsutdin Badriddinov va uning 10 nafar safdoshi otib tashlandi;
- 2) Sa’dulla Qosimov «bosmachilar»ni qo‘llab-quvvatlashda, «aksilinqilobchi millatchi tashkilotlar» a’zolari bilan aloqa bog‘laganlikda ayblangan;
- 3) Munavvarqori Abdurashidxonova «Milliy Ittihod» va «Milliy Istiqlol» tashkilotlarining a’zolari degan ayb qo‘yilgan;
- 4) Mahmudxo‘ja Behbudiy boshchilik qilgan 15 nafar mustaqillik fidoyisi Moskva atrofida otib tashlandi.

Javob:

--	--

3. (Q-10 ball) Sovet hokimiyatining dastlabki o‘n yilligida O‘zbekistonda imlo 3 marta o‘zgartirildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsadni aniqlang.

- 1) yangi ko‘chib kelgan aholi uchun rus maktablarini sonini oshirish, Moskvadagi ayrim ziylilarni O‘zbekistonga ko‘chirish;

- 2) mahalliy aholini savodsiz qilish, uning asriy qadriyatlaridan mahrum qilib, sovet madaniyati ruhida tarbiyalash;
- 3) aholini yagona alifboga o'tkazish orqali ziyolilar qatlamini qo'llab-quvvatlash va ularni rag'batlantirish;
- 4) hududda ruslashtirish siyosatini amalga oshirish.

Javob:

--	--

4. (Q-10 ball) «Hujum» harakati qanday oqibatlarga olib kelganligini aniqlang.

- 1) yangi imkoniyatlarga ega bo'lish maqsadida ko'plab xotin-qizlarni yashab turgan joylarini o'zgartirishga olib keldi;
- 2) milliy qadriyatlarning hisobga olinmaganligi ayollarga nisbatan zulmning kuchayishiga sabab bo'ldi;
- 3) O'zbekistonda 2500 dan ortiq faol xotin-qizlar fojiyali halok bo'lishiga olib keldi;
- 4) barcha xotin-qizlar bu harakatni qo'llab-quvvatlashdi, natijada ular uchun yangi imkoniyatlar ochildi.

Javob:

--	--

5. (Q-10 ball) Islom dini mintaqaga kirib kelgach, asrlar davomida yurtimizda yaratilgan asarlar arab alifbosidagi eski o'zbek yozuvida yozilgan edi. Bolsheviklar eski yozuv tizimidan voz kechib, yangi yozuv joriy etish orqali qanday maqsadni ko'zlagan?

- 1) milliy madaniyatni sovet mafkurasiga moslashtirish
- 2) sovet adabiyotini va proletar madaniyatini yaratish
- 3) mahalliy tillarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash
- 4) eski yozuv asosida ilmiy-tarixiy manbalarni keng targ'ib qilish

Javob:

--	--

6. (Q-10 ball) 1930-yillarda o'zbek xotin-qizlarining sanoat va ishlab chiqarishga jalg qilinishi qanday oqibatlarga olib keldi?

- 1) hunarmandchilik butunlay yo'q bo'ldi
- 2) ayollar yirik sanoat korxonalarida ishlay boshladilar
- 3) ayollar to'liq huquqiy tenglikka erishdilar
- 4) ayollarning sog'lig'iga jiddiy zarar yetdi

Javob:

--	--

7. (Q-10 ball) Quyidagilardan sovet hokimiyati yuritgan madaniy siyosat va uning natijasi to'g'ri berilgan ma'lumotni aniqlang.

- 1) O‘zbekistonda imlo 4 marta o‘zgartirildi, natijada yangi-yangi iste’dodlar dunyoga keldi va kurtak yoza boshladi;
- 2) O‘rta Osiyoda oliy ta’limning beshigi, Samarqand davlat Universiteti ochilishi natijasida, bir qancha oliy o‘quv yurtlariga asos solindi;
- 3) 1929-yil may oyida Samarqandda o‘tgan O‘zbekiston adiblari, imlochilar va yetakchi ziyolilari konferensiyasida o‘zbek yozuvini arab grafikasidan lotin grafikasiga o‘tkazish haqida qaror qabul qilindi, natijada 1-dekabrda O‘zbekistonda arab alifbosidan lotin yozuviga o‘tildi.
- 4) 1940-yil 8-mayda bo‘lgan O‘zbekiston SSR Oliy Soveti III sessiyasida lotin yozuvidan kirill (rus grafikasi) asosidagi o‘zbek yozuviga o‘tish to‘g‘risida qaror qabul qilindi, natijada O‘zbekiston bilan birga O‘rta Osiyoning boshqa respublikalari va Ozarbayjon ham rus grafikasiga o‘tkazildi.

Javob:

--	--

8. (Q-10 ball) Bolsheviklar barcha sohalar kabi ma’naviy hayotga ham o‘z ta’sirlarini o‘tkazdilar. Ular dastlabki yillarda qanday ishlarni amalga oshirganligini aniqlang.
- 1) o‘lkadagi yangi ijodkorlarni izlab topish va ularni qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratdilar;
- 2) sovet maktablari va texnikumlar ochishga alohida e’tibor qaratdilar;
- 3) jadid maktablarini yopib, eski usul maktablari va vaqf maktablari tugatdilar;
- 4) Toshkent va Buxoro shaharlarida ilk Universitetlarni ochishga e’tibor qaratdilar.

Javob:

--	--

9. (Q-10 ball) Sovet rejimi milliy rahbar xodimlarni qatag‘on qilish bilan birga maorif sohasidagi ziyolilarga ham tazyiq o‘tkaza boshladi. Ushbu siyosat natijasida yuzaga kelgan holatlardan to‘g‘rilarini aniqlang.

- 1) 1929--yil 5--noyabrdada Toshkentda ma’rifatparvar Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi 38 nafar kishi qamoqqa olindi;
- 2) XX asr o‘zbek madaniyatining 3 nafar yorqin yulduzlari – Fitrat, Cho‘lpon va Abdulla Qodiriylar 1929-yilda Samarqand shahrida otib tashlandi;
- 3) 1931--yil 25-aprelda Moskvada bo‘lib o‘tgan sud majlisida Munavvarqori boshchiligidagi millatning 15 nafar fidoyisi bo‘lgan «Milliy Istiqlol» a’zolari otib o‘ldirishga, qolgan 72 nafar kishi esa uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilindi;
- 4) O‘zbekiston Oliy sudining sobiq prokurori Sa’dulla Qosimov va uning ko‘plab safdoshi ustidan sud jarayoni o‘tkazildi. Ularning butun mol-mulki davlat hisobiga musodara qilindi.

Javob:

--	--

10. (Q- 10 ball) Nima sababdan XXSR harbiy ishlar noziri, alohida O‘zbek otliq askarlar polkinining komandiri va komissari lavozimlarida ishlagan Mirkomil Mirsharopov qamoqqa olinganligini aniqlang.

- 1) sovet rejimi o‘z hokimiyatini mustahkamlab olgach unga bo‘ysunmaslik siyosatini olib borganlikda ayblandi;
- 2) o‘lkada hududiy chegaralanish siyosatiga qarshi chiqqanlikda ayblandi;
- 3) o‘zbek diviziyasini milliylashtirish va bu diviziya yordamida O‘zbekistonni SSSR tarkibidan ajratib olishda ayblandi;
- 4) mustaqil davlatni barpo etishga urinish kabi ayblovlar e’lon qilindi.

Javob:

--	--

5-savollar

1.(Q-10 ball) Quyidagi atamalarni ularga berilgan ta’riflar bilan to‘g‘ri moslashtiring.

a) Avtonomiya;	1) eski tuzum tarafdarlari, islohotlar va o‘zgarishlarga qarshi turuvchilar;
b) Duma;	2) hukumatning, biror tashkilotning muhim bir hujjatni, qonunni, voqeani ko‘pchilik e’tiboriga yetkazuvchi bayonoti;
c) Konservativ;	3) Rossiya imperiyasining qonun chiqaruvchi hokimiyati;
d) Deklaratsiya.	4) Rossiya sotsial-demokratik ishchi partiyasining 1903-yil II syezdida partiya a’zolarining ko‘pchiligi asosida tashkil topgan guruhi;
	5) biror-bir hududning qonun bilan chegaralangan davlat hokimiyatini mustaqil amalga oshirish huquqi.

Javob:

a	b	c	d

2. (Q-10 ball) Quyidagi atamalarni ularga berilgan ta’riflar bilan to‘g‘ri moslashtiring.

a) «Bosmachilik»;	1) ba’zi muassasa, tashkilotda rahbarlik ishini olib borish maqsadida saylanadigan yoki ta’sis etiladigan kollegial organ;
b) Bolsheviklar;	2) metrik sistema qabul etilgunga qadar Rossiyada qo‘llangan, 1,09 gektarga teng yer maydoni o‘lchovi;
c) Byuro;	3) Turkistonda 1918-1925-yillarda keng xalq ommasi vakillarining bosqinchi qizil armiyaga qarshi olib borgan qurolli harakatiga hukumat tomonidan berilgan nom;
d) Desyatina.	4) Rossiya sotsial-demokratik ishchi partiyasining 1903-yil II syezdida partiya a’zolarining ko‘pchiligi asosida tashkil topgan guruhi;
	5) Rossiyada 1905-yilda tashkil topgan, konstitutsion-demokratik partiya deb ataluvchi partianing a’zolari.

Javob:

a	b	c	d

3. (Q-10 ball) Quyidagi atamalarni ularga berilgan ta’riflar bilan to‘g‘ri moslashtiring.

a) Kadetlar; b) Eserlar; c) Federatsiya; d) Evakuatsiya.	1) maqsadi, g‘oyasi, dunyoqarashining mushtarakligi jihatidan birlashgan kishilar guruhi; 2) Rossiyada 1905-yilda tashkil topgan, konstitutsion-demokratik partiya deb ataluvchi partiyaning a’zolari; 3) davlatlarning o‘z siyosiy mustaqilligini muayyan doirada cheklash yo‘li bilan yagona ittifoqqa birlashuvi; 4) odamlar, tashkilot, korxonalar ni urush, tabiiy ofat kabilar xavfidan saqlash maqsadida bir joydan boshqa joyga ko‘chirish; 5) sotsial revolyutsionerlar nomidan olingen bo‘lib, ular sovetlar ichida dehqonlar manfaatini himoya qiluvchi guruh bo‘lgan.
---	---

Javob:

a	b	c	d

4. (Q-10 ball) Quyidagi atamalarni ularga berilgan ta’riflar bilan to‘g‘ri moslashtiring.

a) Chachvon; b) Firqa; c) Biy sudlari; d) Qozi sudlari.	1) qabila urf-odatlariga tayanib ish ko‘radigan sud; 2) maqsadi, g‘oyasi, dunyoqarashining mushtarakligi jihatidan birlashgan kishilar guruhi; 3) bir davlatning boshqa bir davlatga bo‘ysunish tartibi; 4) shariat qoidalari asosida ish ko‘radigan sud; 5) otning dumি qilidan to‘qilgan, paranji ostidan yuzga tutiladigan to‘r pardan.
--	--

Javob:

a	b	c	d

5. (Q-10 ball) Quyidagi atamalarni ularga berilgan ta’riflar bilan to‘g‘ri moslashtiring.

a) Delegat; b) Front; c) Gimnaziya; d) Ispravnik.	1) urush boshlanishi bilan qurolli kuchlar barpo etiladigan operativ-strategik birlashma; 2) uyezd tarkibiga kirgan bir necha qishloq yoki ovullardan iborat hududiy bo‘linma; 3) ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan va ular bo‘yicha chuqur ta’lim beradigan o‘quv muassasasi; 4) uyezd politsiyasi boshlig‘i; 5) biror tashkilot, jamoa tomonidan vakolatli qilib saylab yoki tayinlab yuborilgan vakil.
--	--

Javob:

a	b	c	d

6. (Q-10 ball) Quyidagi atamalarni ularga berilgan ta’riflar bilan to‘g‘ri moslashtiring.

a) Uchastka pristavi; b) Vassal; c) Volost; d) Uyezd.	1) keskin va qat'iy choralar tarafldori; 2) aholi yashash joyi nazoratchisi; 3) bir davlatning boshqa bir davlatga bo'y sunish tartibi; 4) tumanlarga teng ma'muriy-hududiy bo'linma; 5) uyezd tarkibiga kirgan bir necha qishloq yoki ovullardan iborat hududiy bo'linma.
--	--

Javob:

a	b	c	d

7. (Q-10 ball) Quyidagi atamalarni ularga berilgan ta'riflar bilan to'g'ri moslashtiring.

a) Monokultura; b) Natsionalizatsiya; c) Kollektivlashtirish; d) Protektorat.	1) mayda-mayda dehqon xo'jaliklaridan ommaviy tarzda yirik kollektiv xo'jaliklar (kolxozlar)ni tashkil qilish; 2) mustamlaka mamlakat qaramligining bir shakli. Bunday mamlakat ichki siyosatida birmuncha mustaqil bo'lsa-da, tashqi siyosati mustamlakachi davlat qo'liga o'tadi; 3) almashlab ekishga amal qilmagan holda dalada faqat bir xil ekinni muttasil yetishtirish; 4) ayrim shaxs yoki birlashmalarning xususiy mulki bo'lgan yer, ishlab chiqarish korxonalari, transport va boshqalarni davlat ixtiyoriga olish; 5) qo'sh haydovchi kishi, dehqon. U dehqonlarni g'oyaviy jihatdan birlashtirib turgan ittifoq bo'lganligi uchun shunday nomlangan.
--	--

Javob:

a	b	c	d

8. (Q-10 ball) Quyidagi atamalarni ularga berilgan ta'riflar bilan to'g'ri moslashtiring.

a) Jadid; b) Radikal; c) Tuzem; d) Muxolifat.	1) keskin va qat'iy choralar tarafldori; 2) «Yangi» degan ma'noni bildiradi; 3) yerli xalq, mahalliy aholining mustamlakachilar tomonidan atalishi; 4) o'rta asrlarda O'rta Osiyo xonliklari qurol-yarog' ombori (qo'r) mutasaddisi; 5) qarama-qarshi fikrda bo'lgan, qarshi chiquvchi, qarshi.
--	---

Javob:

a	b	c	d

9. (Q-10 ball) Quyidagi atamalarni ularga berilgan ta'riflar bilan to'g'ri moslashtiring.

a) Qo‘rboshi; b) «Qo‘shchi»; c) Muxtoriyat; d) «Qulqolar».	1) o‘rta asrlarda O‘rta Osiyo xonliklari quroq-yarog‘ ombori mutasaddisi hamda quroq-aslaha, turli yarog‘lar va to‘p yasash korxonalari boshlig‘i; 2) biron-bir hududning davlat hokimiyatini mustaqil amalga oshirish huquqi; 3) insonlarning bilimi va tafakkurini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya; 4) qo‘sh haydovchi kishi, dehqon. U dehqonlarni g‘oyaviy jihatdan birlashtirib turgan ittifoq bo‘lganligi uchun shunday nomlangan; 5) mustabid sovet rejimining badavlat va o‘rta hol dehqonlarni qishloq burjuaziyasi sifatida tugatish siyosatidir.
---	--

Javob:

a	b	c	d

10. (Q-10 ball) Quyidagi atamalarni ularga berilgan ta’riflar bilan to‘g‘ri moslashtiring.

a) Maorif; b) Matbuot; c) Mutaassib; d) Muvaqqat.	1) dinga qattiq berilgan, uning aqidalariga ko‘r-ko‘rona amal qiluvchi; 2) gazeta, jurnal va kitoblar majmuyi; 3) insonlarning bilimi va tafakkurini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya; 4) uyda yollanib ishlanadigan hunarmandchilik; 5) vaqtincha, muayyan muddatga tuzilgan hukumat.
--	--

Javob:

a	b	c	d

6-savollar

1.(Q-10 ball) 1991-yilning 19–21-avgustida Sovet Ittifoqida davlat to‘ntarishi sodir etildi. Buning natijasida qanday holat yuzaga kelganligini aniqlang.

- mamlakatda mavjud siyosiy hokimiyat ag‘darildi;
- markaziy hokimiyat to‘laligicha Ichki ishlar vazirligi tasarrufiga o‘tdi;
- favqulodda holat joriy etildi va hokimiyat Favqulodda holat davlat komiteti qo‘liga o‘tdi;
- aholini vahimaga soladigan yangi qonunlar qabul qilindi;
- Oliy Kengash deputatlari tarqatib yuborildi.

Javob:

--	--

2. (Q-10 ball) O‘zbekiston Respublikasida 1992-yil 8-dekabrda nima maqsadda mustaqillik Konstitutsiyasi qabul qilindi?

- 1) davlat to‘ntarishini oldini olish;
- 2) huquqiy demokratik davlatni barpo etish;
- 3) Mustaqillik deklaratasiyasini qabul qilish;
- 4) inson huquq va erkinliklarini ta’minlash;
- 5) ikki palatali parlamentni shakllantirish.

Javob:

--	--

3. (Q-10 ball) Mustaqillikning dastlabki yillarida sud hokimiyati sohasida amalga oshirilgan islohotlar aniqlang.

- 1) O‘zbekiston Respublikasining Oliy xo‘jalik sudi tugatildi;
- 2) sud ishlarini yuritish o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda olib boriladigan bo‘ldi;
- 3) Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudi Konstitutsiyaviy sudga qo‘sib yuborildi;
- 4) sanksiya berish huquqi sudlardan prokuratura organiga o‘tkazildi.
- 5) avvalgi jazolovchi organdan shaxs huquq va erkinliklarini to‘laqonli himoya qila oladigan organga aylantirildi.

Javob:

--	--

4. (Q-10 ball) O‘zbekistonda nima sababdan ko‘ppartiyaviylik tizimiga o‘tilganligini aniqlang.

- 1) demokratik yo‘liga kirgan davlat va jamiyatlarni shakllantirish;
- 2) proporsional saylov tizimini joriy qilish va uni amalda qo‘llash;
- 3) aholini erkin siyosiy partiyalarga a’zo bo‘lishini ta’minlash;
- 4) jamiyat taraqqiyotida fikrlar xilma-xilligiga asoslanish;
- 5) insonlar orasida o‘zgacha fikrlashni oldini olish.

Javob:

--	--

5. (Q-10 ball) 1990-yil 24-martda O‘zbekiston Respublikasida prezidentlik institutining vujudga kelishi natijasida qanday islohotlar amalga oshirilganligini aniqlang.

- 1) Saylanuvchi mansabдор shaxs Prezident parlament tomonidan saylanadigan bo‘ldi;
- 2) Prezidentlik hokimiyati bilan Ministrlar Sovetining ijroiya-boshqaruv hokimiyati qo‘sib yuborildi;
- 3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bir vaqtning o‘zida Oliy Majlis raisi lavozimini bajaradigan bo‘ldi;
- 4) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida xavfsizlik kengashi tuzildi va unda mudofaa vaziri boshchilik qilinishi belgilandi;
- 5) O‘zbekiston Respublikasi Ministrlar Soveti O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi.

Javob:

--	--

6. (Q-10 ball) O‘zbekiston Respublikasida Parlamentarizmning rivojlanishi bosqichma-bosqich amalga oshirib borildi. Bu jarayon natijasida amalga oshirilgan islohotlarni aniqlang.
- 1) qonunlarni qabul qilish jarayoni tubdan o‘zgarib, dastlab Senat tomonidan ishlab chiqilishi keyin qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan ma’qullanishi kiritildi;
 - 2) mamlakat tarixida ilk bor 1995-yildan ikki palatali parlament shakllantirildi va unga Prezident rahbarlik qilinishi belgilan qo‘yildi;
 - 3) 1990–1994-yillarda mamlakatimiz parlamenti Oliy Kengash nomi bilan atalib, 150 deputatdan iborat edi. 1995–2004-yillarda Oliy Majlis nomi bilan atalgan 250 deputatdan iborat bir palatali parlament shakllantirildi;
 - 4) 2005-yildan boshlab mamlakatimiz tarixida ilk bor O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat tarzda ish boshladi;
 - 5) deputatlik maqomiga ega bo‘lgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasining qurolli kuchlar safida xizmat qilishi belgilab qo‘yildi.

Javob:

--	--

7. (Q-10 ball) Quyidagilardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, uning strukturasi va funksiyalarida amalga oshirilgan islohotlarni aniqlang.
- 1) Bosh vaziri, uning birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari nomzodlari Senatda ko‘rib chiqilishi hamda tasdiqlanishi belgilandi;
 - 2) 1992-yil 4-yanvarda vitse-prezident lavozimi tugatildi va O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri lavozimi ta’sis etildi. Bosh vazir zimmasiga vitse-prezident vakolatlari berildi;
 - 3) mamlakatda favqulodda holatlar joriy qilinganda Vazirlar Mahkamasi qonunlar ishlab chiqish vakolati belgilandi;
 - 4) faoliyatini asosini ko‘p funksiyali emas, bir tomonlama ish olib borishi va buning natijasida xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston xalqi nomidan ish yuritishi belgilandi;
 - 5) 2003-yil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtida Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi» degan qismi olib tashlandi. O‘zbekiston hukumati – Vazirlar Mahkamasiga Bosh vazir rahbarlik qilishi belgilandi.

Javob:

--	--

8. (Q-10 ball) Nima maqsadda 1992-yili musiqa va raqs san’ati bo‘yicha bir qancha ko‘rik tanlovlari o‘tkazilgan?
- 1) xalqaro maydonda chiqish;
 - 2) xalqqa yaqinlashish, el orasida yurish;
 - 3) musiqa va raqs san’atini butun dunyoga tanitish;
 - 4) aholining tushkun kayfiyatini ko‘tarish;
 - 5) noyob xalq iste’dodlarini izlab topish.

Javob:

--	--

9. (Q-10 ball) O‘zbekistonda nima sababdan 130 dan ortiq milliy-madaniy markazlar tashkil etilgan?

- 1) O‘zbekiston hududida o‘z madaniyati va o‘z an’alariga ega bo‘lgan 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaganligi uchun;
- 2) O‘zbekiston Respublikasiga turli millat vakillarini respublikadan ko‘chib kelishini oldini olish uchun;
- 3) O‘zbekistonda yashovchi turli millat vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun;
- 4) tez-tez anjumanlar tashkillashtirish va milliy bayramlarni keng targ‘ib qilish uchun.
- 5) ijtimoiy-siyosiy harakatlarni jadal rivojlantirish va ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash uchun.

Javob:

--	--

10. (Q-10 ball) Mamlakatimizda ikki palatali parlamentni shakllantirishdan ko‘zlangan asosiy maqsadni aniqlang.

- 1) viloyatlar manfaatini ko‘proq himoya qilish;
- 2) qonunlarni sifat darajasini yaxshilash;
- 3) xalqaro hamjamiyatga qo‘shilish;
- 4) umum davlat va hududiy manfaatlar mutanosibligini ta’minlash;
- 5) deputatlar sonini keskin qisqartirish.

Javob:

--	--

7-savollar

1. (M-10 ball). Quyidagi voqealarning natijasi to‘g‘ri berilganlarini aniqlang.

T/r	Voqeа	Natija
1	Qo‘ng‘irot-Beynov avtomobil yo‘li qurilishining birinchi bosqichi yakunlandi	O‘zbekistonda yagona avtomobil yo‘li tarmog‘i vujudga keldi
2	O‘zbekiston Respublikasi sobiq Ittifoqdan qolgan rubl zonasida bo‘lib turdi	yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning pasayishi natijasida rublning qadri ham tushib bordi
3	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to‘g‘risida»gi farmoni e’lon qilindi	Respublika hududida yagona, cheklanmagan va qonuniy to‘lov vositasi sifatida milliy valyuta – so‘m muomalaga chiqarildi

4	«O‘zbekiston transport va transport kommunikatsiyalari uyushmasi» tashkil etildi	«O‘zbekiston temir yo‘llari» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi uyushma tarkibidan chiqarildi
---	--	--

Javob:

--	--

2. (M-10 ball). Quyidagi voqealarning natijasi to‘g‘ri berilganlarini aniqlang.

T/r	Voqea	Natija
1	O‘zbekiston Afg‘oniston uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan loyihani amalga oshirdi	Hayraton-Mozori Sharif temir yo‘lining 75 kilometri qurildi
2	Davlat mulkini xususiylashtirish yuzasidan mamlakatimizda katta ko‘lamdagi amaliy ishlar olib borildi	ko‘p ukladli iqtisodiyot va mulkdorlar sinfi nisbatan kamaydi
3	Mamlakatda zamonaviy transport-kommunikatsiya tizimi shakllandi	«O‘zbekiston havo yo‘llari» milliy aviakompaniyasi 1992-yili «O‘zbekiston avtomobil transportiga» qo‘sib yuborildi
4	«O‘zbekiston transport va transport kommunikatsiyalari uyushmasi» tashkil etildi	«O‘zbekiston temir yo‘llari» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi uyushma tarkibiga kiritildi

Javob:

--	--

3. (M-10 ball). Quyidagi voqealarning natijasi to‘g‘ri berilganlarini aniqlang.

T/r	Voqea	Natija
1	Angren-Pop temir yo‘li va Qamchiq tunneli ochildi	Farg‘ona vodiysi O‘zbekistonning boshqa hududlari bilan temir yo‘l orqali bog‘landi
2	Janubiy Koreya va O‘zbekiston o‘rtasida qo‘shma korxona qurish to‘g‘risida shartnomaga imzolandi	«O‘zDAEWOAvto» qo‘shma korxonasi ochildi
3	Andijon viloyati Asaka shahrida Markaziy Osiyo hududidagi birinchi avtomobil zavodi ishga tushirildi	«Peugeot» va «Citroyon» brendlari ostida yo‘lovchi va yuk tashishga mo‘ljallangan avtomobillar ishlab chiqarila boshlandi
4	O‘zbekistonda yagona temir yo‘l tarmog‘ini vujudga keltirish ishlari amalga oshirildi	Qo‘ng‘irot-Beynov avtomobil yo‘li qurilishining birinchi bosqichi yakunlandi

Javob:

--	--

4. (M-10 ball). Quyidagi voqealarning natijasi to‘g‘ri berilganlarini aniqlang.

T/r	Voqea	Natija
-----	-------	--------

1	1996-yilda avtomobilsozlik yana bir pog'onaga ko'tarildi	Toshkent shahrida Markaziy Osiyo hududidagi birinchi avtomobil zavodi ishga tushirildi
2	O'zbekiston avtomobil sanoatida mahalliy lashtirish dasturini amalga oshirish samarali yo'lga qo'yildi	Chet davlatlarning avtomobillarini yurtimizga kirib kelishi jadal rivojlandi
3	Qishloqlarda agrar islohotlar amalga oshirildi	mamlakatda ko'p ukladli xo'jaliklar shakllantirildi
4	Paxtachilikda Isroil texnologiyalari asosida tomchilatib sug'orish usul joriy qilindi	mamlakatda suv tanqisligi nisbatan kamaydi

Javob:

--	--

5. (M-10 ball). Quyidagi voqealarning natijasi to'g'ri berilganlarini aniqlang.

T/r	Voqeа	Natija
1	Mamlakatda paxta yakkahokimligiga barham berildi	oziq-ovqat xavfsizligi, g'alla mustaqilligi ta'minlandi
2	O'zbekistonda qishloq xo'jaligida yerlarning suv ta'minoti va meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha bir nechta loyiha amalga oshirildi.	Biroq qishloq xo'jaligi sohasining chet el investitsiyalariga qaramligi natijasida ekinlar hosildorligi pasaydi
3	«Chorvachilikda xususiy lashtirishni davom ettirish va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida» qaror qabul qilindi	Respublikada ishlab chiqarilayotgan go'sht va sutning 75% ni xususiy sektor bera boshladi
4	Yurtimizda intensiv texnologiyalar asosida parvarishlanadigan pakana va yarim pakana ko'chatlar ekish usuli yo'lga qo'yildi	Mamlakat iqlimining o'ziga xosligi intensiv bog'larning yurtimiz iqtisodiyoti uchun samarasiz ekanligini ko'rsatdi

Javob:

--	--

6. (M-10 ball). Quyidagi voqealarning natijasi to'g'ri berilganlarini aniqlang.

T/r	Voqeа	Natija
1	Intensiv texnologiyalar asosida parvarishlanadigan pakana va yarim pakana mevali daraxtlar yetishtirish yo'lga qo'yildi	Respublikada yetishtirilayotgan mahalliy mevalar soni tubdan qisqarib ketdi

2	Qishloq xo‘jaligi sohasida mamlakatda suv tanqisligi hisobga olingan islohotlar amalga oshirildi	Andijonlik paxtakorlar tashabbusi bilan chigitni plyonka ostiga ekish texnologiyasi joriy etildi
3	Yurtimizda intensiv texnologiyalar asosida parvarishlanadigan pakana va yarim pakana ko‘chatlar ekish usuli yo‘lga qo‘yildi	Mamlakat iqlimining o‘ziga xosligi intensiv bog‘larning yurtimiz iqtisodiyoti uchun samarasiz ekanligini ko‘rsatdi
4	Respublikamiz hududida intensiv bog‘lar barpo qilingan	Toshkent va Samarqand viloyatlarida yangi bog‘lar barpo etildi

Javob:

--	--

7. (M-10 ball). Quyidagi voqealarning natijasi to‘g‘ri berilganlarini aniqlang.

T/r	Voqeа	Natija
1	1996-yilda xalqaro iqtisodiy makonda paxta inqirozi yuz berdi	paxta xomashyosi eksportidan tushadigan daromad shu yilning o‘zida 15% qisqardi
2	«Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi	Tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi bekor qilindi
3	«Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili – davlat dasturi» qabul qilindi	tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirishga o‘n yil muddatga moratoriy e’lon qilindi
4	1998-1999-yillarda mamlakatimiz hududida noqulay ob-havo sharoiti kuzatildi	Paxta eksporti 25% ga qisqardi

Javob:

--	--

8. (M-10 ball). Quyidagi voqealarning natijasi to‘g‘ri berilganlarini aniqlang.

T/r	Voqeа	Natija
1	Bozor munosabatlariga o‘tishning dastlabki davridan respublika hukumati va Prezidenti tomonidan bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi	Qabul qilingan hujjatlar samarasiz natija bermaganligi uchun 2008-yilda iqtisodiy inqiroz yuzaga keldi
2	«Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi	Tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish mexanizmi soddalashtirildi

3	«Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili – davlat dasturi» qabul qilindi	Tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirishga ikki yil muddatga moratoriy e’lon qilindi
4	Yurtimizda chet el valyutasini erkin konvertatsiya qilish tizimi joriy qilindi	milliy valyutaning qadrsizlanishi yuzga keldi

Javob:

--	--

9. (M-10 ball). Quyidagi voqealarning natijasi to‘g‘ri berilganlarini aniqlang.

T/r	Voqea	Natija
1	O‘zbekistonning bozor munosabatlariiga o‘tish yo‘liga doir taraqqiyotning “O‘zbek modeli” ishlab chiqildi	Iqtisodiy islohotlarni boshqarish tizimi barpo etilib, bozor infratuzilmasi shakllandi
2	O‘zbekistonda chek vositasi bilan xususiylashtirish g‘oyasidan voz kechildi	davlat mol-mulki yangi mulkdorga faqat sotish yo‘li bilangina mulkchilikning boshqa shakliga aylantirila boshlandi
3	O‘zbekiston valyutasiga ega emasligi sababli 1961-1992-yillarda rubl muomalasida bo‘ldi	mamlakatning tashqi qarzi oshib, oltin zaxiralari garovga qo‘yildi
4	Qishloq xo‘jaligi davlat xo‘jaliklarining mol-mulki, fermalar, bog‘lar va uzumzorlar imtiyozli shartlar asosida xususiylashtirildi	fermer xo‘jaliklar tugatilib, dehqon xo‘jaliklari yuzaga kelishi boshlandi

Javob:

--	--

10. (M-10 ball). Quyidagi voqealarning natijasi to‘g‘ri berilganlarini aniqlang.

T/r	Voqea	Natija
1	Iqtisodiyotda moliya institutlari (kredit uyushmalari) joriy qilindi	tadbirkorlik faoliyatida turg‘unlik davri boshlandi
2	1996-yilda xalqaro iqtisodiy makonda paxta inqirozi yuzaga keldi	milliy valyuta zaxirasi keskin tushib ketib paxta eksperti oshdi
3	O‘zbekistonning bozor munosabatlariiga o‘tish yo‘liga doir besh tamoyil ishlab chiqildi	iqtisodning siyosatdan ustunligi, uni mafkuradan xoli etish belgilandi

4	«O‘zbek modeli» konsepsiysi asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning shakllanishi va rivojlanishi tizimi ishlab chiqildi	respublikada tadbirkorlikning rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berdi
---	---	--

Javob:

--	--

8-savollar

1. (Q-10 ball) Quyida berilgan ta’lim tizimidagi islohotlarni natijasi bilan o‘zaro moslashtiring.

1) 2018/2019 o‘quv yilidan boshlab, Oliy ta’limga kirish uchun o‘tkaziladigan test jarayonlari isloh qilindi;	a) 7 yildan 6 yilga va ayrim yo‘nalishida 6 yildan 5 yil qisqartirildi;
2) tibbiyot sohasida bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida o‘qish muddati o‘zgartirildi.	b) uzoq muddatli ta’lim va kredit modul tizimi joriy qilindi; c) 15 kun davomida o‘tkazish, natijasini esa imtihonning ertasiga e’lon qilish vazifalari qo‘yilgan; d) imtihonlar o‘quvchi talabidan kelib chiqib, yozma shaklda ham o‘tkaziladigan bo‘ldi.

Javob:

1	2

2. (Q-10 ball) Quyida berilgan ta’lim tizimidagi islohotlarni natijasi bilan o‘zaro moslashtiring.

1) 2017-yil respublika maktablaridagi bitiruvchilarining ota-onalari o‘rtasida so‘rovnama o‘tkazildi;	a) natijada mактаб о‘quvchilari o‘rtasida yosh kitobxon ko‘rik tanlovi joriy qilindi;
2) 1997-yili Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi.	b) lotin alifbosiga asoslangan yozuv joriy qilindi; c) ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha uch bosqichli tizim joriy qilindi; d) 12-yillik majburiy ta’limdan 11-yillik ta’limga qaytildi.

Javob:

1	2

3. (Q-10 ball) O‘zbekistonda ochilgan xorijiy universitetlarning filiallarini yo‘nalishlari bilan moslashtiring.

1) iqtisodiyot va biznes 2) matematika va psixologiya	a) Janubiy Koreyaning INHA universiteti b) Singapur menejmentni rivojlantirish instituti c) M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti d) Vestminster universiteti
--	--

Javob:

1	2

4. (Q-10 ball) Quyida berilgan ta’lim tizimidagi islohotlarni natijasi bilan o‘zaro moslashtiring.

- | | |
|--|--|
| 1) 1997-yil Xorazm Ma’mun akademiyasi qayta tiklanishi natijasida... | a) Xiva ichan qal’a turizmi rivojlandi; |
| 2) 2000-yili Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondiga e’tibor kuchayishi natijasida... | b) Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo‘linmasi sifatida tashkil etildi; |
| | c) dunyoning eng boy qo‘lyozmalar xazinasidan biri sifatida YUNESKO madaniy merosi ro‘yxatiga kiritildi; |
| | d) ushbu ilmiy dargohga universitet maqomi berildi. |

Javob:

1	2

5. (Q-10 ball) Quyida berilgan ta’lim tizimidagi islohotlarni natijasi bilan o‘zaro moslashtiring.

- | | |
|---|--|
| 1) 1992-yil Oliy ta’lim muassasasiga test sinovi asosida o‘qishga qabul qilish tizimi kirib kelishi natijasida... | a) 6 ta oliy ta’lim muassasasida tajribadan o‘tkazildi; |
| 2) 1994-yil Davlat test markazi tashkil etildi, natijada ... | b) 5 yillik oliy ta’limdan 4 yillik bakalavriat tizimi joriy qilindi; |
| | c) bu tizim samarasini bermaganligi uchun to‘xtatildi; |
| | d) shu yildan boshlab oliy ta’lim muassasalariga test orqali qabul joriy etildi. |

Javob:

1	2

6. (Q-10 ball) Quyida berilgan ta’lim tizimidagi islohotlarni natijasi bilan o‘zaro moslashtiring.

- | | |
|--|--|
| 1) 2004–2009-yillarda məktəb tə’limini rivojlantırışın davlat umummilliy dəsturi qabul qilindi natijasında... | a) Məktəbgachanın tə’lim vazirlığı təşkil etildi; |
| 2) Prezident 2017-yıl 30-sentabrda «Məktəbgachanın tə’lim tizimini boshqarışını təkəmildəşdirish to‘g‘risidə» farmonunu imzaladı, natijada ... | b) chekka qışloqlardagı kollejlər təqatlib, o‘rniga kasb-hunar məktəbları joriy qilindi; |
| | c) yeni məktəblər qurulub, boshqaları kapital tə’mirdən çıxarıldı; |

d) maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga bepul vitaminlar berish joriy qilindi.

Javob:

1	2

7. (Q-10 ball) Quyida berilgan ta’lim tizimidagi islohotlarni natijasi bilan o‘zaro moslashtiring.

- 1) 2017-yil Prezidentning «Respublika oliy ta’lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o‘tkazish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi, natijasida...
- 2) Prezidentning «Umid» jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida farmoni e’lon qilindi, natijada ...

- a) chet davlatda yurgan yoshlarni yurtimizga qaytarish ishlari boshlandi;
- b) alohida iqtidor talab etiladigan ta’lim yo‘nalishlarida test sinovlari bekor qilindi;
- c) bir bosqichli doktorantura tizimiga o‘tildi;
- d) iqtidorli yoshlarning chet ellarda o‘qishi qo’llab-quvvatlandi.

Javob:

1	2

8. (Q-10 ball) Quyida berilgan ta’lim tizimidagi islohotlarni natijasi bilan o‘zaro moslashtiring.

- 1) 2010-yilda “Ijod” fondi tashkil etildi, natijasida...
- 2) 1999-yil “Zulfiya” nomidagi davlat mukofoti joriy qilindi, natijada ...

- a) rassomchilik va dizayn institutiga Kamoliddin Behzod nomi berildi;
- b) yosh ijodkorlarning birinchi kitobi davlat hisobidan chop qilina boshlandi;
- c) xotin-qizlarning magistratura bosqichida o‘qish xarajatlarini davlat o‘z zimmasiga oldi;
- d) yetuk mutaxassislar, yetakchi va iqtidorli qizlarning shakllanishiga zamin yaratildi.

Javob:

1	2

9. (Q-10 ball) O‘zbekistonda ochilgan xorijiy universitetlarni qaysi davlatga tegishli ekanligi asosida moslashtiring.

- 1) Vestminster universiteti;
- 2) INHA universiteti filiali.

- a) Italiya;
- b) Janubiy Koreya;
- c) Buyuk Britaniya;
- d) Rossiya.

Javob:

1	2

10. (Q-10 ball) O‘zbekistonda ochilgan xorijiy universitetlarning filiallarini yo‘nalishlari bilan moslashtiring.

1) neft va gaz	a) Vestminster universiteti;
2) texnika va texnologiya	b) M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti;
	c) I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat universiteti;
	d) Turin politexnika universiteti.

Javob:

1	2

9-savollar

1. (B-10 ball) Yoshlar ma’naviyatida Muzeylarning ahamiyati hisobga olinib 2014-yil Vazirlar Mahkamasining qarori bilan haftaning qaysi kunlari muzyelarning bolalar va ularning ota-onalariga bepul xizmat ko‘rsatishi belgilandi?

- 1) chorshanba va yakshanba
- 2) payshanba va yakshanba
- 3) dushanba va shanba
- 4) seshanba va juma

Javob: _____

2. (B-10 ball) O‘zbekiston BMTning homiyligidagi ta’lim, fan va madaniyat bilan shug‘ullanuvchi qaysi xalqaro tashkilotiga a’zo bo‘lgan?

- 1) MAAT
- 2) YUNESKO
- 3) AYSESKO
- 4) YUNISEF

Javob: _____

3. (10- ball) «Turkiston» saroyi 1993-yilda qanday maqsadda tashkil etilgan?

- 1) mahalliy va xorijiy san’atkorlarning chiqishlari uchun
- 2) faqat xorijiy teatr jamoalarining spektakllarini namoyish qilish uchun
- 3) sport musobaqalarini o‘tkazish uchun
- 4) faqat bolalar uchun mo‘ljallangan qo‘g‘irchoq teatrлari tashkil etish uchun

Javob: _____

4. (B-10 ball) 2001-yil O‘zbek davlat akademik drama teatriga Prezident farmoni bilan qanday maqom berilgan?

- 1) Xalq teatri
- 2) Milliy teatr
- 3) Ashula va raqs teatri
- 4) Simfonik teatr

Javob: _____

5. (B-10 ball) 2014-yilda YUNESKO tomonidan yuritiladigan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan san’at turini yozing.

- 1) Maqom
- 2) Katta ashula
- 3) Askiya
- 4) Lazgi

Javob: _____

6. (B-10 ball) Yurtimizda har ikki yilda bir marotaba qaysi xalqaro musiqa festivali o‘tkaziladi?

- 1) Boqiy ovozlar
- 2) Lapar festavali
- 3) Lazgi festavali
- 4) Shashmaqom

Javob: _____

7. (B-10 ball) O‘zbekiston Respublikasida yashovchi turli millat vakillarini respublikaning ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida faol ishtirok etishini ta’minlash milliy-madaniy markazlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu markazlarning tashkil etilishiga nima sabab bo‘ldi?

- 1) mamlakatda yashovchi turli millat vakillarining madaniy aloqalarini rivojlantirish va ularning faolligini oshirish zarurati
- 2) barcha millat vakillarini yagona milliy madaniyatga bo‘ysundirish, ular o‘rtasidagi nizolarni tez bostirish
- 3) keskin yuzaga kelayotgan nizolarni oldini olish va o‘zbek xalqi urf-odatlarini singdirish
- 4) faqat bitta millat vakillarining manfaatlarini himoya qilish, ularni yagona til va urf odatga olib kelish

Javob: _____

8. (B-10 ball) 2014-yilda yoshlarga oid davlat siyosati qarorining qabul qilinishiga nima sabab bo‘ldi?

- 1) yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan barkamol avlodni voyaga yetkazish zarurati
- 2) yurtimiz aholisining katta qismini yoshlardan tashkil etishi, yoshlarga oid barcha siyosatlarni to'xtatish va eski tizimga qaytish istagi
- 3) yoshlarning ta'lif olish imkoniyatlarini cheklash va ularning ilm-fan yutuqlaridan foydalananishini cheklash
- 4) faqatgina chet elda ta'lif olishni rag'batlantirish, milliy ta'lif tizimida yuzaga kelayotgan kamchiliklar

Javob: _____

9. (B-10 ball) «Mard o'g'lon» mukofoti qanday maqsadda ta'sis etilgan?

- 1) chet elda yurgan yoshlarni vatanga qaytarish
- 2) yoshlarni rag'batlantirish va ularning ijtimoiy faolligini oshirish
- 3) faqat sport sohasida yutuqlarga erishgan yoshlarga mukofot berish
- 4) 30 yoshga to'limgan yoshlarni harbiy xizmatga jalg qilish maqsadida

Javob: _____

10. (B-10 ball) 2017-yilda «Kamolot» yoshlari ijtimoiy harakati tugatilib, uning o'rniga «O'zbekiston yoshlari ittifoqi» tashkil etildi. Ushbu o'zgarishning asosiy sababi nima?

- 1) yoshlarning muammolari va tashabbuslarini bevosita davlat e'tiboriga yetkazish zarurati
- 2) harakat faqat shahar yoshlarini qamrab olganligi natijasida, yoshlari o'rtasida ijtimoiy tengsizlik muammoi mavjudligi uchun
- 3) «Kamolot» yoshlari harakati o'z vazifalarini bajara olmaganligi natijasida yoshlari o'rtasida huquqbazarliklar avj olganligi
- 4) yoshlarning faoliyatini qat'y nazoratga olish, ularni chet davlatga ishlash maqsadida ketishini oldini olish

Javob: _____

10-savollar

1. (B-10 ball) O'zbekiston nima maqsadda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'ldi?
 - 1) xalqaro tan olingan qoidalarga rioya qilish uchun
 - 2) jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi bo'lish uchun
 - 3) mamlakatda sodir bo'ladigan nizolarda yordam so'rash uchun
 - 4) tashqi xavfdan himoyalish va kuch ishlatish tizimiga ega bo'lish uchun

Javob: _____

2. (B-10 ball) Shanxay beshligi qanday sabab bilan tashkil etilgan?

- 1) mintaqada ijtimoiy muammolarni xal etish uchun
- 2) xavfsizlik va chegara hududlarida o‘zaro ishonchni mustahkamlash uchun
- 3) harbiy blok sifatida tashkil topgan
- 4) MDH davlatlarini yagona uyushmaga birlashtirish uchun

Javob: _____

3. (B-10 ball) O‘zbekistonning 2001-yilda Shanxay sammitida to‘la huquqli a’zo bo‘lishi qanday natijaga olib keldi?

- 1) «Shanxay beshligi» faoliyati faqat bir tomonlama qilib belgilandi
- 2) O‘zbekiston xorijiy siyosatda betaraf yo‘nalishni tanladi
- 3) O‘zbekiston harbiy bloklarga qo‘shildi
- 4) Tashkilotning nomi o‘zgartirildi va «Shanxay Hamkorlik Tashkiloti» deb ataldi

Javob: _____

4. (B-10 ball) O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati asosini nima tashkil qiladi?

- 1) xalqaro hamkorlik, iqtisodiy tengsizlik, chegara hududlari mudofaasi
- 2) kuch ishlatmaslik, kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralar daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish
- 3) xalqaro tashkilotlar qoidalarining ustunligi, ayrim huquqlarni cheklash, nizolarni har qanday yo‘l bilan bartaraf etish
- 4) Afg‘oniston bilan munosabatlarda chegara hududlarni belgilash, nizo kelib chiqsa harbiy bloklarga uyushish

Javob: _____

5. (B-10 ball) O‘zbekiston yer osti boyliklari bilan qanday tavsiflanadi?

- 1) Mendeleyev davriy jadvalining barcha elementlari mavjud
- 2) Faqat oltin va uran zaxiralari bor
- 3) Faqat neft va tabiiy gaz mavjud
- 4) Faqat toshko‘mir va fosforit mavjud

Javob: _____

6. (B-10 ball) O‘zbekistonning strategik joylashuvi sababli mintaqada qanday muammolar yuzaga keladi?

- 1) boshqa davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlikning yo‘qligi
- 2) neft va gaz resurslarining yo‘qligi
- 3) kuchli davlatlarning manfaatlari to‘qnashuvi
- 4) dengiz portlariga bevosita ega bo‘lishi

Javob: _____

7. (B-10 ball) O‘zbekiston geografik jihatdan qanday muammolarga ega?

- 1) suv resurslarining cheklanganligi va ekologik muammolar
- 2) boy tabiiy resurslarga ega bo‘lishi

3) o‘rmonlarning ortiqcha zichligi

4) dengizga yaqin joylashganligi

Javob: _____

8. (B-10 ball) O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Konstitutsiya qanday ahamiyat kasb etadi?

1) tashqi siyosat Konstitutsiya bilan emas, boshqa qonunlar bilan tartibga solinadi

2) harbiy bloklarga a’zo bo‘lishini belgilab beradi

3) xalqaro ekologik muammolarning yechimini belgilab beradi

4) O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosat tizimini belgilab beradi

Javob: _____

9. (B-10 ball) Mustaqil davlatlar Hamdo‘stligi nima maqsadda tashkil etilgan?

1) sobiq ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan yosh mustaqil davlatlarni bir yoqadan bosh chiqarib ish olib borish uchun

2) bo‘lingan dunyoni qayta bo‘lish, iqtisodiy qoloqlikni keskin oldini olish maqsadida

3) O‘rta Osiyo davlatlarini Yevropa davlatlariga qaram bo‘lib qolishini oldini olish maqsadida

4) tub yerli xalqlarining manfaatlarini himoya qilish, favqulodda urush holati yuzaga kelsa keskin choralar ko‘rish

Javob: _____

10. (B-10 ball) 2004-yilda qayerda buyuk o‘zbek mutafakkiri Alisher Navoiyga haykal o‘rnatildi?

1) M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti

2) Janubiy Koreyaning INHA universiteti

3) Tokiodagi Soka universiteti

4) Singapur menejmentni rivojlantirish instituti

Javob: _____


**USHBU IMTIHON SAVOLLARINING JAVOBLARINI
TO'LIQ HOLDA, BIZNING TELEGRAM KANALIMIZ
ORQALI YUKLAB OLISHINGIZ MUMKIN!**

Telegram manzil: ↗ [@ustoz](https://t.me/ustoz)

Kanalga qo'shilish uchun ustiga bosing

<https://t.me/ustoz>

<https://t.me/ustoz>



Eslatma: Faqat **@ustoz** username ostidagi kanalga bizga tegishli,
qolganlari soxta kanallar!

